

## **NUTQ AKTLAR NAZARIYASI: TILNING PRAGMATIK FUNKSIYASI VA KOMMUNIKATIV HARAKATLAR MEXANIZMI**

**Axmadjonov Nurbek Zokirjon o'g'li**

**Farg'ona davlat universiteti, nemis va fransuz tillari kafedrası v.b. dotsenti,  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**

**Yaminjonova Sabinabonu Yaminjon qizi**

**Farg'ona davlat universiteti,**

**Filologiya va tillarni o'qitish: Ingliz tili 3-kurs talabasi**

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.15342849>**

**Annotatsiya:** Nutqiy aktlar nazariyasini anglash til vositalarining ijtimoiy hayotdagi roli va ta'sir doirasini chuqurroq tushunishga xizmat qiladi. So'zlar nafaqat tovushlar majmuasi yoki yozuv belgilarining ketma-ketligi, balki ular inson tafakkuri, ijtimoiy ong va kommunikativ maqsadlarni amalga oshirish vositasidir. Har bir nutqiy akt orqali shaxs mavjud munosabatlarni mustahkamlashi, o'zgartirishi yoki yangidan vujudga keltirishi mumkin. Shu bois, nutqiy aktlar tilning faqatgina axborot uzatuvchi emas, balki ijtimoiy harakatni amalga oshiruvchi mexanizm sifatidagi funksiyasini ochib beradi. Bu esa insonni til orqali o'z irodasini ifoda etish, boshqalarga ta'sir o'tkazish va ijtimoiy muhitga faol tarzda aralashish imkoniyati bilan ta'minlaydi.

**Kalit so'zlar:** *Nutq akt, direktiv, komissiv, deklarativ, assertivlar, ekspressiv, illokutsion akt, perlokutsion akt, lokutsion akt.*

### **KIRISH**

Til insonning ijtimoiy ongini ifodalovchi va muloqot muhitini shakllantiruvchi asosiy vositadir. So'zlar yordamida nafaqat axborot almashiladi, balki amaliy harakatlar amalga oshiriladi, ijtimoiy pozitsiyalar ifodalanadi va o'zgaradi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, nutqiy akt nazariyasi tilning kommunikativ, ijtimoiy va psixologik jihatlarini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — nutq aktlari nazariyasining amaliy jihatlarini hozirgi interaktiv va raqamli muloqot kontekstida aniqlab, uning pragmatik imkoniyatlarini ochib berishdan iborat. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, u tilni faqat tahlil obyekt emas, balki ijtimoiy faoliyat vositasi sifatida o'rganishga zamin yaratadi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI**

Nutq akti nazariyasi — bu gaplar orqali inson qanday amaliy harakatlarni amalga oshirishini o'rganuvchi konsepsiyadir. Bu nazariya tilshunoslik, falsafa va muloqotshunoslik sohalarini o'zaro bog'lab turuvchi muhim nazariy asosdir. Dastlab John L. Ostin tomonidan ilgari surilgan bu g'oya keyinchalik John Searle tomonidan takomillashtirildi va izchil rivojlanib bordi. Keyingi yillarda til va madaniyat o'zaro kesishgan ilmiy yondashuvlar natijasida bu nazariya yangi semantik va pragmatik tahlillar bilan boyidi. Kundalik nutqda gaplar faqatgina ma'lumot berish uchun emas, balki turli xil maqsadlarda ishlatiladi. Shu nuqtai nazardan, J.L. Ostin o'zining "How to Do Things with Words" asarida nutqiy aktlari nazariyasini taqdim etdi<sup>1</sup>. Ostin nutq aktini faqatgina gapning ma'nosi emas, balki uning nutq vaziyatidagi maqsadi va ta'siri bilan birgalikda o'rganish kerakligini ta'kidladi. U gaplarni: 1. Illokutsion akt (gapiruvchining maqsadini bildiruvchi bosqich. Bu bosqichda faqatgina aytilayotgan gapning ma'nosi emas, balki uning ortida yotgan kommunikativ niyat ham inobatga olinadi); 2. Lokutsion akt (to'g'ridan-to'g'ri nutq birligini yaratish jarayoni. Lokutsion akt asosan ifodaning ma'nosi va referensiyasi bilan bog'liq bo'lib, gapning kognitiv mazmunini bildiradi); 3. Perlokutsion akt (aytilgan gapning

<sup>1</sup> Austin, J.L. How to Do Things with Words. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1962, b. 101.

tinglovchiga ko'rsatgan real ta'siri, ya'ni u orqali qanday o'zgarish ro'y berishini anglatadi. Gap orqali tinglovchining fikri, hissiyoti yoki harakatiga ta'sir etiladi. Masalan, biror gapdan so'ng kimningdir ishga kirishishi yoki fikrini o'zgartirishi perlokutsion natijadir) kabi uchta o'lchamda tahlil qildi. Ostinning g'oyalari til falsafasida katta ta'sir ko'rsatdi.

Zamonaviy lingvistikada nutq aktlari nazariyasi tilning ijtimoiy-kommunikativ funksiyalarini tahlil qilishda muhim metodologik asoslardan biri hisoblanadi. Uning fikricha, har qanday gap faqat semantik ma'no bilan emas, balki uni aytishdagi niyat (illokutsion komponent) va bu gapning tinglovchiga ko'rsatgan real ta'siri (perlokutsion komponent) bilan ham to'liq tushunilishi lozim. Ostin nutq aktini uch bosqichda tahlil qilishni taklif etadi. Mazkur nazariyani zamonaviy kommunikatsion muhitda, xususan, raqamli muloqot kontekstida tahlil qilsak, uning dolzarbligi yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan, ijtimoiy tarmoqlardagi "Sen bu vazifani bugun tugatishing kerak" tarzidagi yozishma yuzaki ko'rinishda deklarativ gap bo'lishiga qaramay, illokutsion jihatdan bu gap buyruq xususiyatini kasb etadi. Agar ushbu gap natijasida foydalanuvchi o'z harakatini o'zgartirib, vazifani bajarishga kirishsa, bu holat perlokutsion natija bo'ladi. Yoki korporativ muhitdagi onlayn yig'ilishlarda rahbar tomonidan aytilgan "Bu loyihani kim zimmasiga oladi?" degan jumla lokutsion akt sifatida so'roq shaklida ifodalansa-da, uning illokutsion xususiyati vazifa yuklash niyatini bildiradi. Natijada, ishtirokchilardan biri javobgarlikni o'z zimmasiga oladi – bu esa perlokutsion ta'sirning yaqqol ko'rinishidir. J.L. Ostinning nutq aktlari nazariyasi tilni ijtimoiy faoliyat sifatida tahlil qilishga asos solgan muhim ilmiy yondashuvdir. U tilni faqat struktural ma'noda emas, balki kommunikativ jarayonning faol elementi sifatida ko'rib chiqdi. Ostinning bu nazariyasi pragmatika fanining shakllanishiga zamin yaratdi va tilni faol ijtimoiy vosita sifatida o'rganishga imkon berdi.

Xususan, bugungi interaktiv va ko'pkanalli muloqot vositalarining rivojlanishi fonida nutq aktlari nazariyasining amaliy ahamiyati yanada ortmoqda. Shu jihatdan qaralganda, Ostinning ishlari til falsafasi va amaliy lingvistikada chuqur iz qoldirgan fundamental tadqiqotlar sirasiga kiradi.

Ostin g'oyalarini yanada rivojlantirgan John Searle (1969) esa "Nutq aktlari" asarida nutqning amaliy xususiyatlarini ijtimoiy va madaniy kontekstda qanday ishlashini chuqurroq tahlil qilgan<sup>2</sup>. U tilning qanday ijtimoiy qoidalarga asoslanib ishlashini aniqlashga uringan va nutq aktlarining har xil turlarini (assertivlar, direktivlar, komissivlar, ekspressivlar va deklarativlar) tasnifladi. Bu nazariyaga ko'ra, insonlar "va'da beraman", "ishdan bo'shatildingiz" yoki "kechirasiz" kabi iboralarni ishlatganda, ular shunchaki axborot bermaydi, balki amaliy harakatni amalga oshiradi. Searle modeli hozirgi tilshunoslikdagi nazariy va amaliy tadqiqotlarga asos bo'lib xizmat qilmoqda. J.L. Ostin va keyinchalik John Searle tomonidan rivojlantirilgan ushbu yondashuv, tilni ijtimoiy institut sifatida tushunishga olib keldi. Bu nazariyaning amaliy ahamiyatini bugungi axborot maydonida, ayniqsa huquq, siyosat va kommunikatsiya sohalarida ko'rish mumkin. Masalan, diplomatik sohada "Biz sizni tan olamiz" degan bayonot nafaqat siyosiy pozitsiyani bildiradi, balki xalqaro huquqiy maqomga ega bo'lgan real natijani yuzaga keltiradi. Yoki sud jarayonida ayblovchi sudyadan "Aybdor deb topildingiz" degan ibora faqat til birligi emas — u real ijtimoiy-huquqiy oqibatga ega. Shu kabi, universitet diplomini topshirishda aytiladigan "Endilikda siz bakalavr darajasiga egasiz" degan ibora ham

<sup>2</sup> Searle, J.R. *Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language*. Cambridge: Cambridge University Press, 1969, b. 16–19.

ijtimoiy maqomning o'zgarishini bildiradi. Bu kabi nutq aktlari, til vositasida ijtimoiy reallikni yaratish va uni boshqarish imkonini beradi.

Vittgenshteynning keyingi ishlari ham nutqiy aktlari nazariyasiga mos keladi. U tilni "til o'yinlari" sifatida tushuntirdi, bu esa tilning turli xil kontekstlarda turli xil vazifalarni bajarishini anglatadi<sup>3</sup>. Bu nazariya tilni tahlil qilishda yangi yo'nalishlarni ochdi va tilning inson hayotidagi muhim rolini ko'rsatdi. Ludwig Wittgensteinning keyingi falsafiy qarashlari, xususan, *Philosophical Investigations* (1953) asarida taqdim etilgan "til o'yinlari" (language games) tushunchasi, J.L. Ostin tomonidan ilgari surilgan nutqiy aktlar nazariyasi bilan konseptual jihatdan yaqinlik kasb etadi. Ikkala yondashuv ham tilni mustaqil, formal tizim sifatida emas, balki ijtimoiy kontekstda amalga oshiriladigan faoliyat shaklida tahlil qiladi. Wittgensteinning "til o'yinlari" tushunchasi tilning turli hayotiy kontekstlarda o'ziga xos maqsadlar va qoidalar asosida ishlatilishini anglatadi. Bu qarashga ko'ra, tilning ma'nosi uning qo'llanilish shakllaridan kelib chiqadi: "Ma'no – bu ishlatilishdir" (Meaning is use). Masalan, "Iltimos, eshikni yoping" jumlasini o'z semantik shakli bilan birga, aniq kontekstda buyruq, iltimos yoki ogohlantirish bo'lishi mumkin. Bu esa tilning kontekstga muvofiq va ijtimoiy rollarga asoslangan tarzda ishlatilishini ko'rsatadi.

Wittgenstein tilni shaxmat o'yiniga qiyoslab, har bir nutq akti tildagi o'ziga xos "harakat" ekanligini ta'kidlaydi. Harakatlarning ma'nosi esa o'yin (ya'ni kommunikatsiya) ichidagi roli va funksiyasiga bog'liq. Shu jihatdan, Wittgenstein tilni tushunishni, uni qanday "o'ynash"ni bilish bilan tenglashtiradi. J.L. Ostinning nutq aktlari nazariyasida til faqatgina obyektiv axborotni ifodalovchi vosita emas, balki bajarilayotgan harakat (speech as action) sifatida ko'riladi. Ostin nutq aktlarini uch komponent asosida tahlil qiladi. Wittgensteinning "til o'yinlari" tushunchasi aynan shu uch bosqichli tahlilni ijtimoiy va kontekstual qoidalar bilan to'ldiradi. Til o'yinida har bir akt muayyan konvensiyalar va interaktiv kelishuvlar asosida bajariladi. Shunday qilib, nutq aktlarining yasalishi, qabul qilinishi va anglanishi bu o'yin ichidagi qoidalarga bog'liq bo'ladi. Misol uchun, tibbiyot muassasasida shifokorning "Qon bosimingizni o'lchaymiz" degan iborasi diagnostik jarayonning boshlanishi sifatida qabul qilinadi. Bu jumla lokutsion jihatdan oddiy bayon bo'lsa-da, illokutsion jihatdan tibbiy protsedurani boshlashga signal beradi, perlokutsion jihatdan esa bemorda tayyorgarlik, ehtimoliy xavotir yoki ishonch hissini uyg'otadi. Bu jarayon esa faqatgina til emas, balki institutning ijtimoiy "til o'yini" doirasida tushuniladi.

Wittgenstein va Ostin qarashlari o'rtasidagi aloqa – bu tilning faqat sintaktik yoki semantik tizim sifatida emas, balki faoliyat, harakat va ijtimoiy tajriba sifatida o'rganilishidir. Wittgenstein tilning ishlatilishiga e'tibor qaratgan holda, har bir nutq birligi muayyan o'yin – ya'ni ijtimoiy va kommunikativ kontekst – doirasida ma'no kasb etishini ta'kidlaydi. Ostin esa bu faoliyatni nutqiy aktlar orqali tushuntirib, har bir gap faqat aytilmaydi, balki bajariladi degan g'oyani ilgari suradi. Shu sababli, Wittgensteinning "til o'yinlari" tushunchasi nutqiy aktlar nazariyasiga nazariy asos va kontekstual chuqurlik bag'ishlaydi. U tilning faol ijtimoiy mexanizm sifatidagi mohiyatini ochib beradi, bu esa tilshunoslik, sotsiolingvistika, psixolingvistika va hatto sun'iy intellektda tilni modellashtirish bo'yicha tadqiqotlarda muhim ahamiyatga ega.

Bertrand Russellning ta'riflar nazariyasi XX asr mantiqiy analiz va til falsafasining shakllanishida muhim burilish yasagan nazariyalardan biridir<sup>4</sup>. Bu nazariya, eng avvalo, tilning

<sup>3</sup> Wittgenstein, L. *Philosophical Investigations*. Oxford: Blackwell Publishing, 1953, bo'lim 2–5.

<sup>4</sup> Russell, B. "On Denoting" // *Mind*, Vol. 14, No. 56, 1905, b. 480–482.

grammatik shakli bilan uning mantiqiy tuzilmasi o'rtasidagi farqni aniqlashga qaratilgan. Rassellga ko'ra, ayrim gaplar yuzaki grammatik ko'rinishida ma'lum bir narsaga ishora qilayotgandek tuyuladi, biroq chuqur tahlilda bu gaplar real mavjudlikni talab qilmaydi. Bunday aniqlik bizga shuni ko'rsatadiki, gap noto'g'ri bo'lishi mumkin, lekin u baribir ma'nisiz emas. Bu esa, mavjudlikni nazarda tutmaydigan iboralarning mantiqiy qiymatini tahlil qilish imkonini beradi.

Bertrand Russell XX asr boshidagi analitik falsafa rivojiga asos solgan eng muhim shaxslardan biridir. Uning ta'riflar nazariyasi (Theory of Descriptions), ayniqsa "On Denoting" (1905) maqolasida bayon etilgan, tilning sintaktik va semantik tuzilishini aniq va formal uslubda tahlil qilish imkonini bergan. Bu nazariya ayniqsa "yo'q obyektlar" bilan bog'liq iboralarni mantiqiy tahlil qilishda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Masalan, "Shahanshohning maslahatchisi uzoq safarda" degan gapni tahlil qilishda, Russell ushbu ibora faqat real mavjud bo'lgan obyektga ishora qilgandagina mazmunga ega bo'lishini ko'rsatadi. Rassellning ishlari, shubhasiz, tilni rasmiy-mantiqiy tuzilma sifatida tahlil qilishda katta yutuqlarga erishgan. Biroq uning modeli, ayniqsa, referensial ifodalar mavjud bo'lmagan holatlarda, tilning faoliyati, pragmatik jihatlarini yetarlicha yoritmaydi. Tilshunoslikning zamonaviy rivojida tilga faqat mantikiy tizim emas, balki ijtimoiy faoliyat sifatida qarash kuchaymoqda. Nutqiy aktlar nazariyasi bu bo'shliqni to'ldiradi. Masalan, ijtimoiy tarmoqdagi "Endi biz jim turmaymiz" kabi bayonot, formal analizda oddiy deklaratsiya sifatida baholanishi mumkin. Biroq nutqiy aktlar nazariyasiga ko'ra bu bayonot ijtimoiy harakatga chorlovchi illokutsion xususiyatga ega va ommani uyg'otishga qaratilgan perlokutsion ta'sirga egadir. Russell modeli bu funksional bo'lamni tushuntirishda o'zlik qiladi.

Rassellning ta'riflar nazariyasi til mantiqiy strukturasi, ayniqsa, referensial iboralarni tahlil qilishda katta ilmiy ahamiyatga ega. Biroq nutqiy aktlar nazariyasi bilan birga qaralgandagina tilning to'liq ijtimoiy va kommunikativ funksiyasi ochiladi. Til nafaqat haqiqatni ifodalaydi, balki harakatga undaydi, hissiyot uyg'otadi va ijtimoiy o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Rassellning ishlari bu jihatni to'liq qamrab ololmaydi, ammo u til falsafasida muhim poydevor bo'lib, nutqiy aktlar nazariyasining shakllanishiga bevosita zamin yaratdi.

### **METODOLOGIYA**

Tadqiqotda qo'llanilgan metodologik asoslar turli fanlar kesishmasida shakllangan. Birinchi navbatda, analitik-falsafiy yondashuv asosida J.L. Austin va J. Searle tomonidan ishlab chiqilgan nutq aktlari tasnifi tahlil qilindi. Bu uslub, tilning semantik va pragmatik o'lchamlarini ajratishga yordam berdi. Ikkinchidan, kontekstual tahlil metodi orqali nutq birligining ijtimoiy va kommunikativ sharoitlarda qanday funktsiya bajarishi o'rganildi. Bu metod yordamida real muloqot namunalarida illokutsion va perlokutsion xususiyatlar aniqlanib, ularning ijtimoiy ta'siri baholandi. Uchinchi yondashuv sifatida interdisiplinar metodika tanlandi: tilshunoslik, falsafa, psixologiya va kommunikatsiya sohalaridagi g'oyalar birlashtirilib, nazariy va amaliy jihatlar uyg'unlashtirildi. Shuningdek, qiyosiy tahlil orqali Austin va Wittgenstein, shuningdek Rassell qarashlari solishtirilib, ularning nutq aktlari nazariyasiga tutgan o'rni ochib berildi. Metodologiyada zamonaviy raqamli muloqot — xususan ijtimoiy tarmoqlardagi lingvistik hodisalar — ham tadqiqot obyekti sifatida qaraladi.

### **MUHOKAMA**

Nutq aktlari nazariyasi hozirgi muloqot muhitida yanada dolzarb tus olgan. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda ko'rilgan illokutsion niyat va perlokutsion natijalarning kuchayishi bu

nazariyaning amaliy ahamiyatini oshiradi. Masalan, onlayn platformadagi "Biz jim turmaymiz" kabi bayonotlar deklarativ shaklda bo'lsa-da, ularning real ijtimoiy ta'siri bor — bu perlokutsion ta'sirdir. Austin tomonidan ilgari surilgan uch bosqichli akt tahlili zamonaviy kommunikatsion holatlarda ham ishlaydi: gap – bu faqat axborot emas, balki ijtimoiy harakatdir. Wittgensteinning "til o'yinlari" konsepsiyasi esa tilning ijtimoiy normalarga bog'liq holda ishlashini ko'rsatadi. Til qoidalari — bu muloqot kontekstidagi kelishuvlar tizimi bo'lib, ular orqali gaplarning ma'nosi shakllanadi. Russellning ta'riflar nazariyasi esa, aksincha, tilni mantiqiy strukturasi asosida tahlil qilgan bo'lsa-da, u tilning pragmatik va harakatga oid (performativ) funksiyalarini yoritishda o'zgarish qiladi. Bu jihatlar Russell nazariyasini nutq aktlari nazariyasi bilan birgalikda o'rganishni zarur etadi. Demak, nutq aktlari — bu tilshunoslikning tor doirasidan chiqib, ko'p sohalarda qo'llanilishi mumkin bo'lgan samarali yondashuvdir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkin, tadqiqot natijalariga ko'ra, nutqiy akt nazariyasi tilni ijtimoiy reallikni shakllantiruvchi vosita sifatida talqin qilishga asos bo'ladi. Har bir gap, ayniqsa kommunikativ muhitda, faqat semantik mazmun bilan emas, balki ijtimoiy harakatni amalga oshirish salohiyati bilan ham baholanadi. Shu bois, bu nazariya nafaqat lingvistika, balki kommunikatsiya, siyosat, huquq va madaniyatshunoslik sohalarida ham keng qo'llanishi mumkin. Amaliyotga oid taklif sifatida: ta'lim tizimida pragmatik tahlil mashg'ulotlariga e'tiborni kuchaytirish, ijtimoiy tarmoqlardagi lingvistik jarayonlarni tahlil qilish bo'yicha tadqiqotlar sonini oshirish lozim. Shuningdek, sun'iy intellekt tizimlarida nutqiy aktlarning kontekstual talqinini modellashtirish bu sohaning yangi rivoj yo'nalishlaridan biri bo'lib xizmat qilishi mumkin. Nutq aktlari nazariyasi tilshunoslikda emas, balki jamiyatni tushunishda ham muhim nazariy asos bo'lib qolmoqda.

### References:

#### Используемая литература:

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Austin, J.L. How to Do Things with Words. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1962, – 168 b.
2. Searle, J.R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. Cambridge: Cambridge University Press, 1969, – 203 b.
3. Wittgenstein, L. Philosophical Investigations. – Oxford: Blackwell Publishing, 1953, – 232 b.
4. Russell, B. "On Denoting" // Mind. 1905. Vol. 14, No. 56.- 479–493b.